TARIX FANI DARSLARINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Umirov Bahodir – Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Dunyo miqyosida fan va texnika taraqqiyotining keskin suratlar bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o‘zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o‘z navbatida ta’lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda. Buning natijasida eng tog‘ri kapital sifatida qadrlanayotgan ta’limning barcha bosqichlarida, ta’lim-tarbiya berish va natijalarni baholash sifat samaradorligini oshirish, o‘qitish usullarini takomillashtirib borish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish muhim hisoblanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda tarix fani darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ulardan foydalanish inson hayotini o‘zgartirib, uning kasbiy va hayotiy faoliyati samaradorligini oshirishga yo‘l ochadi. Raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti, jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa yoshlarning fikrlash darajasining kengayishga va axborot olish imkoniyatini osonlashtirishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tarixiy ong va taffakkurini shakllantirish, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rniga ega yoshlarni tayyorlash jarayonlarini tashkil etishga e’tibor qaratilmoqda.

Tarix fanini o‘qitish va o‘rganishga yangicha yondashish, ko‘p yillik maktab tajribasiga hamda ilmiy-tadqiqot xulosalariga asoslangan holda darslarni zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida olib borish lozim.

Tarix fanini raqamli texnologiyalardan foydalanib, o‘qitish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Asrimiz globallashuv va axborot asri deb yuritilmoqda. Darhaqiqat, har tomonlama rivojlanayotgan jamiyat taraqqiyotini bugun axborot texnologiyalarsiz, ayniqsa, kompyuterlarsiz tasavvur etish qiyin. Zamonaviy kompyuter vositalari va multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonida didaktik material tayyorlash vazifasini yengillashtiradi. Kompyuter bilan didaktik materiallarni uyg‘unlikda qo‘llash, o‘rganilayotgan mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishga katta yordam beradi.

Xitoy faylasufi Konfutsiy: “Eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko‘rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam, tushunib yetaman», deb bejiz aytmagan. Ta’limda axborot hamda pedagogik texnologiyalarni qo‘llaganda, o‘quvchilar eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari qatoriga kompyuter texnologiyasini kiritish zarurati kundan kunga oshib bormoqda.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o‘qitilgan dars shunday kechadiki, bu jarayonda birorta

o‘quvchi chetda qolmaydi, ya’ni ular ko‘rgan, bilgan, o‘ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tarix darslarini raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish, bir tomondan darsning sifati va samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan o‘quvchilarda shu vositalarni chuqur o‘rganish bilim va ko‘nikmalarini hosil qiladi. Bugungi kunda tarix darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun ishlatiladigan turli dasturiy ta’minotlar mavjud bo‘lib ular:

MS-Word. Bu dasturda matn yozish, uni qayta ishlash va takomillashtirish, o‘qituvchilar tasvirlar va matnlar joylashtirilgan hujjatlar yaratishlari mumkin.

MS-Power Point, Microsoft Power Point - ushbu dastur yordamida yuqori darajali taqdimotni ishlab chiqish va slaydlarni namoyish qilish mumkin. Bu dastur, ayniqsa, tarix darslarini o‘qitishda muhim ahamiyatga egadir. Chunki har bir slaydda mavzuga doir turli tarixiy jarayonlarning rasmlari joylashtirilib, ularga izoh berib boriladi, bu esa o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Adobe PhotoShop. Adobe Photoshop yoki oddiygina Photoshop, grafiklarni tahrir qiluvchi dastur. Photoshop dasturida yuqori darajali tasvirlar yaratishda keng foydalanish mumkin.

Shunday ekan, tarix fanidan dars mashg‘ulotlarini olib borish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekan, bu o‘z navbatida, quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi;

dars jarayoninida o‘quvchilarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, tarixiy ong va tafakkurini shakllantirishda yordam beradi;

o‘quvchilarning bilish faoliyatni kuchaytiradi, texnologik yondoshishga o‘rgatadi;

dars jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytiradi;

dars jarayonida kompyuter vositalaridan unumli foydalanishga ko‘mak beradi;

dars jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo‘li bilan takomillashtirishga ko‘maklashadi;

dars jarayonida mavzular kesimida chet el tajribasidan foydalanib darsni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tarix darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali dars mashg‘ulotining samaradorligini oshirilishiga erishiladi. O‘quvchilar asosiy tarixiy faktlarni yaxshi o‘zlashtirish va ular to‘grisida aniq tasavvur hosil qilishlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qayumova M. Uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash omillari // Архив научнйх исследований.– 2021. – Т.2. – №.1.

2. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.